
DEPUTAT BILAN UCHRASHUV



Do'rmon mahalla fuqarolar yig'inida tumanimizdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylangan deputat Sh.Raximov bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda 4-sektor rahbari, tuman Davlat soliq inspeksiyasi boshlig'i Z.Mirzayev, xalq deputatlari tuman kengashi deputati B.Axmedov va mahalla vakillari ishtirok etishdi.

Muloqotda deputat Sh.Raximov ayni kunda mamlakatimizda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan yangi qonunlar va ularning mazmun-mohiyati haqida axborot berdi.



Ochiq muloqot tarzida bo'lib o'tgan uchrashuvda fuqarolar o'zlarini qiziqtirgan savollar hamda mahalla hududidagi mavjud muammolar bilan deputatga va sektor rahbariga murojaat etdilar. Aholi tomonidan bildirilgan murojaat va takliflar korxonalar, tashkilot rahbarlari hamda deputat tomonidan nazoratga olindi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2021-04-01 20:09:09